O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
Fizika-matematika fakulteti
5130200- Amaliy Matematika kafedrasi
4-kurs 405-guruh bitiruvchisi
AHMADJONOV AZIZBEK
MO'MINJON O'G'LINING

*bakalavr darajasini olish uchun yozgan*

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: "ISPRING DASTURINI MUSTAQIL O'RGANISH UCHUN O'RGATUVCHI MULTIMEDIALI DASTUR YARATISH"**

**Ilmiy rahbar:** **Otabayeva F.**

**Namangan – 2015 yil**

**REJA:**

**KIRISH**

**ASOSIY QISM**

**I-bob. Ispring dasturini o'rganish uchun o'rgatuvchi dastur yaratish va undan foydalanish texnologiyasi.**

**1-§.**Ta'lim tizimida zamonaviy dasturiy vositalarning o'rni.

**2-§.** Elektron ta'lim resurslaring o'quv mashg'ulotlarni olib borish jarayonidagi o'rni

**3-§** Mustaqil ta'limni tashkil etishda o'rgatuvchi dasturlarning o'rni.

**4-§.** Ispring dasturi imkoniyatlari.

**5-§.** O'rgatuvchi dasturlar yaratish texnologiyasi.

**6-§.** O'rgatuvchi dastur tuzilishi.

**7-§.** O'rgatuvchi dasturdan foydalanish texnologiyasi.

**XULOSA.**

**ILOVALAR.**

**INTERNET MANBALARI VA MA'LUMOTLARI.**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

# KIRISH

Ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kunlardan boshlaboq Respublikamiz Prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimov mamlakatimzdagi kadrlar tayyorlash masalasiga asosiy e'tiborni qaratib kelmoqda. Xususan, 1997 yilning 29 avgustida O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9 sessiyasida ta'lim to‘g‘risidagi qonunga asoslangan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Bu dastur uch bosqichdan iborat:

**1-bosqich:** 1997-2001 yillar. Bunda kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirish uchun zarur shart sharoitlar yaratish.

**2-bosqich:** 2001-2005 yillar. Bunda xuquqiy me'yoriy xujjatlar asosida barkamol avlodni Davlat ta'limi standartiga javob beradigan qilib tayyorlash maqsad qilib qo‘yilgan.

**3-bosqich:** 2005 yil va undan keyingi yillar. Bunda davr talabiga mos bo‘lgan barkamol avlodni jamiyatimizning rivojlanishi darajasida tarbiyalab voyaga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan.

Xozirgi paytda Respublikamizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da nazarda tutilgan barcha rejalar muvaffaqyat bilan amalga oshirildi va davom ettirilmoqda.

Tabiiyki, bu maqsadlarni yuqori saviyada amalga oshirish uchun oliygohlar, kollej va litseylarning bitiruvchilari har tomonlama yetuk kadrlar bo‘lib yetishmog‘i – zamon talabidir. Oliygohlarda magistrlar tayyorlashni yuqori saviyada tashkil etish ham shu programmaning bir qismidir.

Muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimov, muntazam ravishda yosh avlodning bilimli, barkamol bo‘lib yetishishi va mustaqil O‘zbekistonimizning fidoyi kadrlari bo‘lmog‘i uchun sharoitlar yaratib bermoqdalar, o‘zlarining har bir nutqlarida yoshlarning ta'lim tarbiyasi, bilim saviyasi, dunyoqarashini shakllantirish kabi dolzarb muammolarga alohida e'tibor qaratmoqdalar.

Pedagogik yondashish o’quv jarayoniga didaktik maqsadlarni qo’llashga asoslangan. Informasion yondashish bo’lsa, o’ziga xos o’qitish muhitini yaratishga

asoslangan bo'lib, unda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o'rganish jarayonida kompyuterda modellashtirilgan obyektlarning ichki, tashqi xossalarini dinamik suratda ko'rsatish bilan o'quvchi-talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil ishlash uchun sharoit yaratish bilan bir qatorda, intellektual rivojlanish uchun imkoniyat yaratadi. Informasion yondashish asosan axborot texnologiyalarining vositalari orqali amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar, xalq ta'limi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ham "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatib o'tganidek har bir o'qituvchi oldiga muhim vazifalar qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarni amaliyotga joriy etilishi ta'lim sohasidagi islohotlarning izchilligini ta'minlash barobarida 2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlanishning davlat umummilliy dasturida belgilangan vazifalarni ro'yobga chiqarishning sifat va samaradorligini ta'minlovchi ma'suliyatli davrni boshlab berdi. Bu qonunlarni amaliyotda qo'llash, ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asarlarida: "Ta'limni tarbiyadan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi"[I.4. 4 –bet] , - deb bekorga ta'kidlamagan edilar. Shuningdek, bosh vazifalardan biri sifatida: "Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa – ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, kabi tamoyillarning ma'no mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy ma'rifiy, ta'lim – tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat" ekanligini ham alohida qayd etib o'tgan edilar.

Bugun biz tarixiy bir davrda xalqimiz o’z oldiga ezgu va ulug’ maqsadlar qo’yib, tinch – osoyishta hayot kechirayotganm avvalambor o’z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo’lida ulkan natijalarni qo’lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz o’z taqdirimizni o’z qo’limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni yetayotganimiz, bu yo’lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to’g’ri tushunib, tanlagan taraqqiyot yo’limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo’llab quvvatlayotgani oldimizga qo’ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbayi va garovi ekanini hayotning o’zi tasdiqlamoqda. Shuningdek Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo’lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko’ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo’lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va ma’suliyatimizni yo’qotsak, bu o’ta muhim ishni o’z holiga, o’zibo’larchilikka tashlab qo’yadigan bo’lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo’g’rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o’zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo’lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin”.[I.4. 3-bet ]

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni to’g’ri yo’lga qo’yish, ularni boshqarish, tartibga solishda prezidentimiz I. Karimovning olib borayotgan islohotlari va ko’rsatmalari haqiqiy mezon vazifasini o’tamoqda. Prezidentimiz barcha sohalarda qanday ishlar olib borilishi lozimligi ularning samarali yo’lga qo’yish borasida doimiy ravishda yo’l – yo’riqlar ko’rsatib kelmoqdalarki, ularga amal qilgan holda biz mamlakatimizning bugungi darajadagi rivojlanishiga erishdik deb aytishimiz mumkin. Shu jumladan e’tibor beradigan bo’lsak ta’lim

sohasida, farzandlarimizga ta’lim – tarbiya berish borasida, xalqimizni ma’naviy – ma’rifiy dunyoqarashini kengaytirishda olib borilayotgan ishlar bugungi kunda o’z samarasini bermoqda va ma’lum natijalarga erishilmoqda.

**Kompyuter** texnologiyalari to’g’risida so’z yuritilganda, odatda ko’z oldimizda axborot texnologiyalari mujassamlanadi. Buning sababi, shaxsiy kompyuterlarning ixtiro etilishi axborot texnologiyalarining ommaviylashishiga va uni keng miqyosda tadbiq etilishiga olib kelinganligidadir. Chunki shaxsiy kompyuterlarning paydo bo’lishi natijasida axborot texnologiyalarining mahsuli bo’lgan dasturiy vositalarga zaruriyat ortib, kundalik ehtiyojga aylanib bormoqda. Shaxsiy kompyuterni tadbiq, etish bo’yicha erishilgan muhim yutuqlardan biribu multimedia vositalarining yaratilishidir. Shaxsiy kompyuterlar multimedia vositalaridan, ya’ni ovoz, grafika, animasiya, video vositalaridan keng ko’lamda foydalanish sari yo’l ochdi. Ta’lim tizimida axborot texnologiyalarining multimedia vositalari yordamida o’quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlari paydo bo’la boshladi. Bular sirasiga virtual kutubxona, virtual o’qitish texnologiyalarini kiritish mumkin. **Virtual kutubxona -** bu o’quv materiallari elektron nusxada chop etilgan yagona katalog tizimiga ega bo’lgan elektron kutubxonadir. Elektron kutubxonadagi o’quv materiallarini tarmoq tizimi imkoniyatlaridan foydalanib o’qish mumkin. Elektron kutubxonadan yoki boshqa manbalardan tarmoq tizimi yordamida materiallarni olib o’qish-virtual o’qish deb yuritiladi. Yangi axborot texnologiyalari asosida boshqarishni avtomatlashtirish, ish yuritish, moliya ishlarini avtomatlashtirilgan holda boshqarishni ta’minlash kabi ishlarni bajarish imkoniyatlari tug’ildi. Bundan tashqari yangi axborot texnologiyalari tufayli yuzaga kelgan juda katta imkoniyatga ega bo’lgan muharrirlarni, tarjima qiluvchi dasturiy vositalarni keltirish mumkinki, ularning yaratilishi ta’lim tizimida ham o’z samarasini bermoqda. Shu o’rinda olamshumul ahamiyatga ega bo’lgan telekommunikasion (kabelli, shisha tolali, sputnikli) aloqa vositalari asosida tashkil etilgan Internet tizimining insoniyatga juda keng imkoniyatlar yaratganligini ta’kidlash lozim. Internet hozirgi kunda butun insoniyat bilimlarini birlashtirish, ularning aqliy qobiliyatlaridan unumli foydalanish kabi masalalarni

yechish bilan bir qatorda, yangi adabiyotlar to'g'risida ma'lumot olish, masofadan turib o'qitish texnologiyasini amalga oshirish, musiqa eshitish, kino va boshqa sohalardagi mashhur kishilarning (yulduzlarning) rasmlarini ko'rish, ular haqida ma'lumotlar olish, kundalik gazetani o'qib borish, ob-havo to'g'risida ma'lumot olish, kompyuter o'yinlari o'ynash, yangi ish joyi topish, magazindan xarid qilish, va hatto keng miqyosdagi biznes ishlarini amalga oshirish mumkin. Uchinchi ming yillikning boshlarida 120 mln. kompyuter yagona dunyo tarmog'iga ulangan, ulardan 1 mlrd. dan ziyod odamlar foydalanmoqda. Keyingi vaqtda internet dan o'spirin yoshlarning va xotin-qizlarning foydalanish sur'ati o'sib borayotganligini qayd etish mumkin. Bulardan ko'rinib turibdiki, ta'lim tizimida yangi axborot texnologiyalarini tadbiq etish masalalariga tubdan boshqacha ko'z bilan qaramoq lozim. Yuqorida qayd etilgan masalalar ta'lim tizimida ham yangi axborot texnologiyalarini tadbiq, etishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash bilan bir qatorda, ularning yechimini kechiktirmasdan hal etish uchun chora-tadbirlar ko'rish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Shu o'rinda aytish lozimki, ta'lim tizimida yangi axborot texnologiyalarini tadbiq etishning bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biri multimedia vositalari negizida virtual o'qitish tizimini yaratishdir.

Bitiruv malakaviy ishimning mavzusi "ISpring dasturini mustaqil o'rganish uchun o'rgatuvchi multimediali dastur yaratish". Albatta har qanday fanni o'qitishdan, o'rgatishdan avval u fizika bo'lsin, matematika bo'lsin xoh informatika bo'lsin ta'lim berishdan avval tarbiyaga to'xtalib o'tamiz.

Prezidentimiz ham shu sohada olib borgan ishlari va fikrlariga e'tiborimizni qaratdik. "Men A. Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir" degan so'zlarni alohida takrorlayman. Insonning ko'p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o'zining milliy davlatini ko'rishga azmi qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda insonlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularni qalbida ishonch uyg'otish eski ijtimoiy tizimdan mutlaqo yangi tizimga o'tishda o'ziga qo'shimcha kuch-qudrat va madad topishda umumiy, yagona

maqsad va orzu-intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyani tayanch va suyanch deb bilaman.

**Milliy g'oyamizning asosiy mazmunini ifoda etadigan yo'nalishlar haqida gapirganda hech shubhasiz, biz vatan ravnaqi va taraqqiyotini o'zimizcha tasavvur qilamiz.**

**Shu bois men shonli tarixiga sadoqat bilan qarab, bugungi ozod hayotni qadrlab o'z kelajagiga katta umid bilan intilayotgan xalqimizning donishmandligi va matonati, uning iymon e'tiqodi, mustahkam irodasi va yuksak ma'naviy ruhi doimo barqaror yashaydi deb ishonaman"[1].[I.1. 3-bet]**

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarni to'gri yo'lga qo'yish, ularni boshqarish , tartibga solishda perzidentimiz I. A. Karimovning olib borilayotgan islohotlari va ko'rsatmalari xaqiqiy mezon vazifasini o'tamoqda.

Bundan 24 yil oldin yurtimizda erkin va mustaqil demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, iqtisodiyotimizni keskin va chuqur isloh etish, ahlimiz manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha qabul qilgan azmu qarorimiz yakkayu yagona to'g'ri ekanini bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda.

Bizning eng ezgu maqsad – muddaomiz dunyodagi taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga kirishdan iboratdir. Buning o'z mohiyati va ahamiyatiga ko'ra bir – biriga teng, bir – birini to'ldiradigan ikki hal qiluvchi vazifani amalga oshirish bizning doimiy e'tibor markazimizda turishi zarur.

Birinchidan iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy, ijtimoiy o'sishimiz va texnologik rivojlantirishimiz sur'atlarini yuksaltirish hisobidan Vatanimiz tarqqiyoti va aholimiz faravonligini munosib darajaga ko'tarishdir.

Ikkinchidan mamlakatimizni modernizatsiya qilish va erkinlashtirishimiz, siyosiy – huquqiy va iqtisodiy tizimni demokratik yangilashni, yurtimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishni davom ettirishdir.

---

I.A.Karimov "Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori" Toshkent. Sharq. 1997

Biz bugun mana shunday buyuk maqsadlarni oldimizga qo'yar ekanmiz, chuqur anglab olishimiz zarurki, orzu intilish mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab olib borayotgan siyosatimizning mantiqiy va qonuniy davomi bo'lib, butun xalqimizdan tinimsiz mehnat va kuch g'ayratni safarbar etishni talab qiladi[2].[I.8. 1 – sentabr]

Bugun O'zbekistonimiz bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'lini xolisona baholar ekanmiz, o'tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalombor, izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o'sish sur'atlari, aholi faravonligining yildan yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro – e'tiborining tobora yuksalib borayotgani – bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosida qo'yilgan, chuqur va puxta o'ylangan maqsad, prinsip va normalarning hayotbaxsh samarasi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Bundan bir yil muqaddam Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan majlisda 2011-yilni "Kichik biznes va tadbirkorlik yili " deb e'lon qilingan edi.

Davlatimiz va jamiyatimizning bugungi kuni ayniqsa, kelajagi uchun g'oyat muhim bo'lgan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini o'z oldimizga maqsad qilib qo'yar ekanmiz, avvalambor, biz yashayotgan XXI – asr intelektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etiladigan, aynan shu qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadigan asr, degan hayotiy haqiqat kelib chiqqan edi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturining amalga oshirilishi natijasida 1 ming 536 ta akademik litsey va kasb – hinar kolleji, umumta'lim maktablarining qariyib 9 ming tasi, ya'ni deyarli hammasi 1 ming 800 dan ortiq sport zali, na'munaviy loyihalar asosida barpo etildi yoki kapital rekanstruksiya qilindi.

Ushbu o'quv muassasalarining moddiy texnik bazasini yangilab borish, tizimli asosda zamonaviy kompyuter texnikasi, o'quv – labaratoriya uskunalari, mebel va o'quv anjomlari bilan qayta jihozlash, ularni talab darajasida saqlash hamda

---

[2] Prezident Islom karimovning O`zbekiston Respublikasi muatqilligining 19 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi so`zi. "O`zbekiston ovozi " Ijtimoiy iqtisodiy gazetasi. 2010 yil 1- sentabr.

yaratilgan bu ulkan salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida mutlaqo yangi bir tuzilma – Moliya Vazirligi huzurida maxsus jamg'arma tashkil etildi.

Shu bilan birga, zamonaviy axborot va kompyuter tehnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalar, internetni nafaqat maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlariga, balki, har bir oilaga joriy qilish harakatlari bugungi kunda tobora kuchayib bormoqda. Aynan zamonaviy aloqa va axborot texnologiyalari tizimini keng ko'lamda rivojlantirish mamlakatimiz va jamiyatimizning taraqqiyot darajasini ko'rsatadigan mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Eng muhimi, ularni rag'batlantirish, ijodiy va intelektual salohiyatini ro'yobga chiqarish maqsadida stajyor – tadqiqotchi izlanuvchilarning lavozim, maoshi stajyor – tadqiqotchilar lavozim maoshining bazaviy miqdoriga, katta ilmiy hodim izlanuvchilar lavozim maoshining hajmi esa fan nomzodi unvoniga ega bo'lgan katta ilmiy hodimlarning maoshiga tenglashtirildi. Bu amalda ushbu tadqiqotchilar ish haqining 1.6 barobar ko'payishini anglatadi[3].[I.9. 8-dekabr]

Shunday qilib, Informatika fani davlat ta'lim standartining o'quv jarayoniga joriy etilishi o'quv fanlariga doir tabiiy va matematika fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarnigina emas, shaxsiy muayyan asosiy faoliyati majmuasi – mehnat, o'quv-biluv, kommunikativ, ahloqiy va jismoniy kamolotiga mos keladigan fazilatlarining shakllanishini ham ta'minlaydi.

Informatika fanlari bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, 3d uch o'lchovli grafika o'quvchilarning tasavvur qilish qobilyatlarini rivojlantirirshga katta hissa qo'shishi , malakalarini oshirishi, ular o'z fikrlaridagi jismni tasvirini to'laligicha ko'rib, fikrlari qanchalik to'gri ekanligiga ishonch hosil qiladilar. O'qituvchini vazifasi o'quvchilarga uch o'lchivli grafikani o'qitishda yaratilgan barcha imkoniyatlardan to'gri va samarali foydalana olishdan iborat.

Davlat ta'lim standartida o'quvchilarni o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yilgan minimal talab bu soda geometrik figuralarni

[3] Mamlakatni modernizatsiya qilish yo`lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. "Ishonch " gazetasi . "O`zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi" nashri 2010 yil 8 – dekabr.

uch o'lchovli grafiklarda tasvirlay olishidir . Bunda o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan talablar ham belgilab o'tiladi. Biz ularni ta'lim tizimidagi belgilangan dasturlar mazmunida, o'quvchilar ma'naviy ma'rifiy dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan mavzularda ko'rishimiz mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi.**

Ta'limni kompyuterlashtirish bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilishda ko'plab yutuqlarga erishilganligini qayd qilgan holda bu sohada yechimini kutayotgan masalalari ko'p ekanligini ham ta'kidlash joiz. Chunonchi, ta'limni kompyuterlashtirishga bir necha yil oldin kirishilgan va qator ishlar qilingan bo'lsa-da, ko'pchilik uchun bu ta'limni tashkil qilishning yangi, noan'anaviy shakli sifatida taassurot qoldirib kelmoqda. Albatta, kompyuter ta'lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega, buning uchun sifatli pedagogik dasturlar va mukammal uslubiyotdan foydalanish lozim.

Ta'lim jarayonida foydalanishga mo'ljallangan ko'plab elektron o'quv materiallari yaratilganki, unga elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, o'rgatuvchi dastur vositalari kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Zamonaviy dasturiy vositalarni o'rganishda o'rgatuvchi dasturlardan foydalanish talabalarda o'zlashtirish ko'rsatkichini ko'tarilishiga olib keladi. Olimlarning o'tkazgan tajribalarining taxlillariga ko'ra ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, ya'ni talaba ko'rib, eshitib va bajarib ko'rish natijasida o'zlashtirish ko'rsatkichi 90% ga ortgani aniqlangan. Xozirda dasturiy vositalar doiymiy rivojlanib bormoqda va yanada yangi, imkoniyatlari kengaytirilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ana shunday dasturlardan biri Ispring dasturidir. Ushbu dastur yordamida juda qulay taqdimotlar yaratish mumkin. Dasturni o'rganish qulayligi shundaki, dastur Power Point negizida ishlaydi. Dastur imkoniyatlaridan yana biri testlar tuzishdir. Testlarni turli shakllarda tuzish mumkindir. Taqdimot tayyorlash jarayonida

ovozlarni yozish, videotasvir yozib olish xam mumkin. Tayyor taqdimotlarni flash xolatga o’tkazish imkoniyati mavjud.

Yuqoridagilardan ushbu dastur yordamida tez va sifatli elektron ishlanmalar, turli taqdimotlar yaratish mumkinligi ko’rinib turibdi. Xozirgi kunda taqdimotlarni flash xolatda tayyorlash, interaktiv testlarni turli shakllarda yaratish, elektron adabiyotlar va ularning katalogini yaratish imkoniyatlari aynan bitta dasturda keltirilgan boshqa dasturlar ishlab chiqilmagan va shu sababdan aynan Ispring dasturi uchun o’rgatuvchi dastur yaratish zarurdir. Shuningdek, dastur haqida davlat tilida ma’lumotlar yetarli emasligi, o’quv, o’quv-uslubiy adabiyotlar yaratilmaganligi, internet tarmog’ida ushbu dastur haqida ma’lumotlar yetarli emasligi ushbu bitiruv malaviy ishning dolzarbligini oshiradi.

## Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari

Kompyuter texnikalari bilan amalga oshiriladigan dasturlarning maqsadi – tajribalar o’tkazish uchun malaka va ko’nikma hosil qilish va zamonaviy texnikani har bir sohaga tadbiq eta bilishdir. Bu maqsadga erishish uchun har bir ishni bajarish jarayonida bizga qator masalalarni yechish: tadqiq qilayotgan ob’yektning tavsifini berish, uni xarakterlash, harakatga keltirish va uning o’ziga xos xususiyatlarini ko’rsatish; mazkur ishda qo’llanilayotgan dasturiy ta’minotlarni tanlash, ularning ishlash printsiplarini mukammal o’rganishdir. Bu ishlarining natijalarini bajarish talabaga, kompyuter dasturlari bilan ishlash, natijalarni tahlil qilish, asoslangan xulosalar chiqarish va ish bo’yicha hisobot tuzishni o’rganish imkoniyatini beradi. Bunday moxirlikka faqat uzliksiz, maqsad sari intiluvchan mehnat qilish natijasida va har bir tajribaga o’ylab, jiddiy munosabatda bo’lish natijasida erishish mumkin.

Har qanday mutaxassis o’zining ish faoliyati davomida ish rejalari va taklif etayotgan mahsulotlari haqida so’zlab berish uchun ma’ruza qilishga to’g’ri keladi. Bunday vaqtlarda u ma’ruzani tez, yaxshi, sifatli, tushunarli va chiroyli qilib tayyorlashi zarur bo’ladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun u qanday dasturiy

ta’minot turlaridan foydalanish mumkin degan savol tug’iladi. Matn muxarriri uning barcha muammolarini xal qilib bera oladimi? Bir necha xil dasturlardan foydalanish va ularning natijalarini umumlashtirish tezda kerakli yechimga olib kelishi mumkinmi? Aynan shu kabi muammolarni hal etishda animatsion dasturlar qo’l keladi. Aynan shu sababli bitiruv malakaviy ishni bajarishdan maqsad: ta`lim yo’nalishi bo’yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni ta`lim jarayonida ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo’llash; ijodiy ishlash, muammo yoki masalaning (muammoning) o’qitilish jarayonidan boshlab, uni to’la nihoyasiga yetkazish bo’yicha qaror qabul qilishda bo’lgan mas`uliyatni his etishga o’rgatish; zamonaviy ta`lim, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanish sharoitida talabalarni mustaqil ishlash va qaror qabul qilish hamda ijodiy yondashuvga tayyorgarligini ta`minlash.

**Bitiruv malakaviy ishning asosiy vazifalari:**

- olingan mutaxassislik va biror ixtisos bo’yicha tayyorlash sohasida ilmiy-tadiqot va amaliy ishlarda bilimlarni mustahkamlash;
- mustaqil ma`lumotlarni izlash va muayyan muammolar yuzaga kelish maqsadlarida vaziyatlarni o’rganishga bo’lgan bilimlarni egallash;
- bitiruv malakaviy ishda qo’yilgan vazifalarni bajarishda tadqiqot, tajriba-sinov va loyihalash metodikalarini o’zlashtirganlik darajasini namoyish etish;
- real sharoitlarda talabaning ishga tayyorgarlik darajasining namoyon bo’lishi;
- mavjud materiallarni tizimlashtirish, tahlil qilish va qayta ishlash va h.k.lardan iborat.
- Qaralayotgan masalaga mos hujjatlarni o’rganish va adabiyotlarni tahlil qilish.
- Ispring dastur imkoniyatlarini o’rganib chiqish.
- O’rgatuvchi dastur yaratish uchun mo’ljallangan dasturlar bilan tanishib chiqish.

BMI **ob'yekti.** Tadqiqot ob'ekti sifatida Ispring dasturi tanlab olingan. Chunki multimediali taqdimotlar yaratish uchun ushbu dastur bugungi kunda eng qulay dastur hisoblanadi. Dastur uchun o'rgatuvchi dasturni yaratishda zamonaviy dasturlardan Flash, Delphi va Adobe Captivate dasturlaridan foydalaniladi.

**BMI predmeti.** Ushbu dasturni "Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda Power Point dasturi bilan o'rgatish tavsiya etiladi**.**

**BMIning ahamiyati** shundan iboratki, BMI natijasida ishlab chiqilgan o'rgatuvchi dastur talabalarni mustaqil ta'lim samaradorligini ortiradi va nomutaxassis o'qituvchilarda mul'timediyali taqdimotlar, talabalar bilimini sinash uchun turli testlar yaratish ko'nikmasini hosil qiladi.

**BMIning ilmiy-amaliy yangiligi:**

Ispring dasturini o'rganish uchun mul'timediyali, barcha tinglovchilarni o'rganishi uchun qulay bo'lgan, o'zbek tilidagi o'rgatuvchi dastur.

**Tadqiqot metodlari:** nazariy tahlil, umumlashtiirish, taqqoslash, pedagogik kuzatish.

**Tadqiqotning metodologik asosi:** O'zbekiston Pespublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonyni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Davlat ta'lim standartlari, O'zbekiston Pespublikasi Prezidentining nutq va asarlarida bayon etilgan mazkur mavzuga oid qarash hamda yondashuvlar, O'zbekiston Pespublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Bazirligining qarorlari, buyruqlari, ta'lim texnologiyasi nazariyasi, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalar.

**Tadqiqot natijalaridan** barcha professor-o'qituvchilar, metodistlar, talabalar foydalanishlari mumkin.

**Ishning tuzilishi.** BMI Kirish, Asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

# ASOSIY QISM

## 1-§. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish

Respublikamizda jahon makonining axborot infratuzilmalari va milliy axborot – hisoblash tarmoq integrtsiyasiga mos keluvchi milliy tizimini yaratish iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikamizda axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarni qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir. XX asr o'rtalariga kelib tezkor mashina mexanizmlardan foydalanilana boshlandi, murakkab texnika va texnologiyalarni o'ylab topildi. Ko'pgina masalalarni hal qilish jarayonida axborot hajmi behisob bir majmuaga aylandi hamda bu axborotlarni yig'ish va uzatish vositalarini yaratish, ularni vaqtida qayta ishlab, boshqarish uchun zarur bo'lgan choralarni belgilab chiqish kerak bo'lib qoldi. Ko'pchilik vazifalarni bajarishda boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, axborot tizimini joriy etish, mutahassislarni kompyuterda ishlashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Ta'limni kompyuterlashtirish tarixan XX asrning 50-yillariga borib taqaladi. Uning o'tmishdoshi dasturlashtirilgan ta'lim bo'lib, undan ommaviy foydalanish o'tgan asrning 50-yillariga to'g'ri keladi.

Jamiyatda paydo bo'lgan har qanday yangilik singari dasturlashtirilgan ta'limning ijobiy tomonlari bilan birga ayrim kamchiliklari ham mavjud edi. Shunga qaramasdan, dasturlashtirilgan ta'lim o'quv-tarbiya ishlarida chuqur ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Mutaxassis va o'qituvchilar o'quv materialini tahlil qilishning yangi uslubiyotini o'zlashtirib oldilar, o'quv materiali bo'yicha axborotlarni qabul qilish, ularni atroflicha mustahkamlash, sinash yagona tizimga aylandi. Ta'limda amal qiladigan teskari aloqa yangicha ahamiyat kasb etdi. Mavzularni to'liq o'zlashtirish uchun psixologik, pedagogik, didaktik, uslubiy zamin yaratildi.

Iqtisodiy jihatdan qimmatga tushushi, tashkiliy qurilishidagi zaif tomonlar mavjudligi sababli XX asrning 70-yillariga kelib dasturlashtirilgan ta'limga tadqiqotchilarning qiziqishi ma'lum darajada susaydi. Garchand dasturlashgan ta'lim sohasidagi izlanishlar ancha kamaygan bo'lsa-da, uning qobig'ida yangi yo'nalish — ta'limni kompyuterlashtirish muammosi paydo bo'ldi.

Kompyuterning ta'lim-tarbiya sohasidagi ahamiyati beqiyos. U ta'lim tizimini ma'muriy boshqarishdan tortib alohida maktab faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishgacha, o'quv fanlarini o'rganishni tashkil qilishdan tortib o'quvchilarning individual mashg'ulotlarini tashkil etishgacha bo'lgan muammolarni qamrab oladi. Kompyuter ma'lumotlarni saqlovchi, ularni qayta ishlovchi, turli shakl va usullarda o'quvchilarga yetkazuvchi o'ta qulay vosita sifatida tan olinmoqda. Ta'lim-tarbiya ishiga kompyuterlarning tatbiq qilinishini insoniyat tarixida kitobning paydo bo'lishi, uning o'rni va ahamiyatiga qiyoslash mumkin. Zero, kitobdan ma'lumotlarni saqlash va tarqatish maqsadida foydalanilsa, kompyuterdan dars jarayonida o'quvchilarga bilim berishda foydalaniladi. Ikkinchidan, kompyuterning ta'lim berishdagi vazifasi dars jarayoni bilan chegaralanmaydi. O'quvchilar u bilan mustaqil ishlab, hatto uyda ham bilim olishlari mumkin. Uchinchidan, kompyuter tarmoqlaridan foydalanish, masofadan o'qitish hozirgi kun uchun orzu bo'lmay qoldi. Bu nogiron bolalar uchun ta'lim olishning yagona imkoniyati, iqtidorli, o'ta qiziquvchan talabalar uchun mustaqil ta'lim olish vositasi.

Kompyuterli o'qitishning afzalliklari juda ko'p: o'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaradi; mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi; o'quvchilarning ishlash sur'ati jadallashadi; kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim sub'yektiga aylanadi; o'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo'ladi; kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi; kompyuter bilan muloqot didaktik o'yin xarakterini oladi va bu bilan o'quvchilarda o'quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi va hokazo. Shu

sababli ta’limni kompyuterlashtirish muammolarini hal qilish bo’yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ular bilan bir qatorda respublikamizda ham turli yo’nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari o’tkazilmoqda.

Manbalar tahlili shuni ko’rsatadiki, ta’limda kompyuterdan foydalanish o’quv predmetlarini o’qitish jarayonini kompyuterlashtirish muammolari bilan bog’liq holda kompyuterning o’quvchilar aqliy taraqqiyotiga ta’siri (B.F.Lomov, K.M.Gurovich); aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi (P.Ya.Galperin, N.F.Talizina); dasturlashtirilgan ta’lim nazariyasi (B.P.Bespalko); inson-mashina o’zaro faoliyati nazariyasi (A.CHapanis, G.Pesk); kompyuter bilan foydalanuvchi muloqotini tashkil qilish (A.M.Dovgyallo); o’quv faoliyatini loyihalash (E.I.Mashbits); dastur vositalarini yaratishga qo’yiladigan ergonomik talablar (D.Meyter, N.Bondarovskaya) kabi qator muammolar tadqiq qilingan bo’lib, bizning tadqiqotimiz ularning u yoki bu jihatlari bilan bog’liq. Boshqacha aytganda, yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning tadqiqotlari bizning ilmiy izlanishlarimiz uchun nazariy asos sanaladi.

## 2-§. Elektron ta’lim resurslaring o’quv mashg’ulotlarni olib borish jarayonidagi o’rni

**Elektron ta`lim resurslari tarkibiga –** elektron darsliklar, elektron qo`llanmalar, ko`rsatmalar, multimediyali vositalar, ma`lumotnomalar va lug`atlar, elektron testlar va topshiriqlar hamda shunga o`xshash talabaning mustaqil bilim olishining ta`minlovchi, o`rganishga qiziqish uyg`otuvchi resurslar kiradi.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim metodlaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘qitish vositasi bo‘lib, undan mustaqil ta'lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o‘quv materiallari o‘quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot

texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalaniladi.

Elektron darsliklarni loyihalashtirish, ishlab chiqish va o‘quv jarayonida keng foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda, chunki ulardan ommaviy ravishda ta'lim sohasida qo‘llanila boshlandi. Oxirgi vaqtlarda elektron o‘quv nashrlarning turli xillari yaratilib, ular o‘z tarkibiga oddiy gipermatn darslikdan tortib masofaviy o‘qitishning kompleks tizimlarigacha qamrab olmoqda.

Elektron darsliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

• matnning elektron versiyasi;

• kitobning gipermatnli elektron versiyasi;

• grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;

• animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;

•animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasm, gipermatnli va test tizimlari mavjud darsliklar.

Elektron darsliklardan o‘quv jarayonida keng foydalanishning asosiy muammosi — bu kompyuter ekranidan katta hajmdagi axborotlarni o‘qishdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida taqdim etish mumkin. Bu ikki usul bitta o‘quv materialini turli shaklda taqdim etishi bilan farqlanadi xolos.

Elektron darslikning matn usulida material, gipermatn ko‘rinishida taqdim etilib, unda grafik, chizma, diagramma, fotografiya, animatsiya va video qo‘llaniladi.

Elektron darslik materiali o‘qituvchiga diktor ovozi bilan yetkazilib, slayd-shou ko‘rinishdagi material bilan birga beriladi. Audio va videoaxborotlarning o‘zaro birgalikda qo‘llanishi o‘qitish samaradorligini keskin yuksaltiradi.

Elektron darslikni yaratishda kelajakda ayrim muammolarni yechish lozimligi ayon bo‘ldi. Shulardan asosiysi, bu — o‘zbek kirill alifbosidagi «Q», «F», «O‘», «H» harflarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri matnga kiritishdir. Tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, elektron darslikni oldin biror bir nashriyotda chop etilgan darslik asosida yaratish lozim, chunki foydalanilayotgan materiallarni tahrir qilish talab

etilmaydi va ulardan skaner orqali foydalanish mumkin bo‘ladi. Bozor munosabatlari axborot mahsulotlarining yangiligi, ishonchliligi va to‘liqligi darajalariga yuqori talablar qo‘ymoqda. Chunki busiz samarali marketing, moliya-kredit va investitsiya faoliyatini yuritish mumkin emas.

**Elektron qo`llanma** – biror bir fanga yo`naltirilgan, fanning o`quv hajmini qisman yoki to`liq qamragan, ayrim bob va bo`limlarning keng tarzda yoritishga va axborotning adaptatsiya blokini o`z ichiga olgan bo`lib, masofaviy o`qitish va mustaqil o`rganish uchun mo`ljallangan o`quv manbaidir.

O‘quv uslubiy elektron mahsulotlar tarkibiga ko`rsatmalar, multimediyali vositalar, ma`lumotnomalar va lug`atlar, elektron testlar va topshiriqlarning asosiy xususiyatlarini belgilab qo’yilgan.

O‘quv uslubiy elektron mahsulotlar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

• ta’limning yuqori sifat darajasida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tishni ta’minlash;
• mustaqil ta’lim olish va o‘zini – o‘zi mustaqil nazorat qilish imkonini yuzaga keltirish;
• axborotni mustaqil o‘rganishning turli uslublarini qo‘llash;
• tajriba-tadqiqot ko‘nikmalarini hosil qilish;
• bilim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilganligi;
• o‘qitishga noan’anaviy yondashish, o‘quv materialini o‘rganishning vaqtini tejash (talabalarga masofaviy o‘qish imkoniyatini berish).

O‘quv uslubiy elektron mahsulotlarni yaratish bosqichlari

O‘quv uslubiy elektron mahsulotlarni yaratish texnologiyasi katta mehnat hajmiga ega bo‘lib, uni yaratishda tajribali professor-o‘qituvchilar va dasturni tuzuvchi mutaxassis hamkorligida tayyorlanadi.

Elektron adabiyotni ishlab chiqish quyidagi keltirilgan bosqichlar olib borilishi maqsadga muvofiq:

• ta’lim muassasalarida fanlar bo‘yicha Respublikada yaratilgan elektron mahsulotlarning monitoringi o‘tkaziladi;
• yetakchi professor-o‘qituvchi, dasturchi (programmist), dizaynerlar jalb etiladi.

• professor-o‘qituvchilar fan bo‘yicha adabiyot, grafik, chizma, rasm, test, mashg‘ulot, so‘rov, qiziqarli mashg‘ulot va hokazolar yig‘iladi va ularga asosan o‘quv-uslubiy elektron mahsulotga ssenariy tuziladi.
• O‘quv uslubiy elektron mahsulotni tuzilmasi ishlab chiqiladi.
• Bo‘limlar, boblar va mavzular bo‘yicha mazmunini hamda ketma-ketligi ishlab chiqiladi.
• Dizayner tomonidan elektron mahsulotga estetik shakl yaratiladi.
• Dasturchi o‘quv-uslubiy elektron mahsulotlarning alohida bloklarning algoritmini tayyorlaydi va berilgan ssenariy, shakllar bo‘yicha tayyor elektron mahsulot yaratadi.
• CD-diskka joylashtiriladi va foydalanuvchi uchun uslubiy qo‘llanma tayyorlanadi.

O‘quv uslubiy elektron mahsulotlarga qo‘yiladigan asosiy talablar:
Elektron o‘quv mahsulotlar bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘proq chuqurlashtirib o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha yaratiladi. O‘quv uslubiy elektron mahsulotlarga asosiy, jumladan: ilmiylik; pedagogik; didaktik; metodik; psixologik; ergonomik; estetik; texnik va texnologik talablar qo‘yiladi.
O‘quv uslubiy elektron mahsulotlarning sifatini baholash mezonlari
1. Texnik mezonlar:
• avtomatik holda yuklanishi (avtozagruzka);
• boshqarish, ma’lumot kirgizish, ma’lumot olish va chiqish;
• EHMning namunaviy ishlash (parametrlarni kirg‘izilgan holda) imkoniyati;
• EHMning kerakli kadrlarini qayta yuklash imkoniyati;
• kiritilgan ma’lumotlarni qaytarish imkoniyati;
• ekranda berilgan va qayta ishlangan ma’lumotlarni chop etish imkoniyati.
2. Servis mezonlar:
• iyerarxik menyu mavjudligi (ma’lumotni qulay topish);
• interaktiv dialogning mavjudligi;

• yordam va sharkllarning mavjudligi;
• tasvirning aniqligi;
• dizayn;
• grafik va harflarning shriftlari bir-biri bilan uyg‘unlashganligi.
3. Pedagogik va psixologik mezonlar:
• ilmiy va pedagogik bilimlarning EHM aks ettirilganligi;
• dasturiy vositalardan foydalanishda pedagogik maqsadlarni tanlash asoslanganligi;
• zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanuvchi yangi boshqaruv sharkl va o‘qitish usullari mavjudligi;
• ta’limga muhimligi (didaktik talablarga javob berishi);
• o‘quv materialini ifodalanish shakli va uning mazmuni orasidagi optimal bog‘liqligi (grafik, jadval, matn, chizma, sxema va hokazo);
• EHM ishlatilganda bexos tugmalarni bosishda, ma’lumotlarning o‘zgarmasligi va stabil ishlashi;
• fikrlashni shakllantirish;
• bilim, ko‘nikma, mahoratlarni mustaqil egallashni shakllantirish;
• eksperimental va izlanish faoliyatini o‘quv jarayonida egallash.
4. Interaktivlik mezoni:
• dialogni olib borishda har xil vositalarning mavjudligi;
• o‘quv materialini o‘zlashtirishda osondan qiyinga o‘tish bosqichlari;
• o‘quv materialida istalgan bobidan foydalanish imkoniyati;
• javoblarni kiritish va olish variantlari;
• xatolarni tahlil qilish imkoniyati va to‘g‘rilash.

O‘quv jarayoni uchun mo‘ljallangan dasturiy vositalarning psixologik-pedagogik, dasturiy texnik sifatini va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish baholash mezonlari orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. O‘quv uslubiy elektron mahsulotlarni ekspertizasi belgilangan tartibda maxsus ekspertlar tomonidan o‘tkazilishi kerak. Maxsus ekspert guruhi tarkibiga ta’lim muassasalaridan yuqori malakali pedagoglar, dastur tuzuvchilar, psixolog, dizayner

va yetakchi mutaxassislar kiritilishi lozim. Ma`lumki, ko`pchiligimiz o`z paytida (hozir ham) bir qancha o`quv – uslubiy ko`rsatmalar, o`quv qo`llanmalar, darsliklar, maqolalar va h.k. yozganmiz. Oldingi davrlarda (hali kompyuterlar hayotimizga kirib kelmasidan oldin, yaqin 2000 yillarga qadar) biz yozgan barcha risolalar oddiy mashinka yordamida qog`ozda chop etilar va bu kitoblar o`quvchining qo`liga yetib borishi uchun kamida 2 – 3 yil o`tar (nashriyotda va ko`paytirish bo`limlarida ancha muddat qolib ketar edi), shundan so`ng juda oz nusxada o`quvchining qo`liga yetib kelar edi.

Zamonaviy kompyuter va programmalarning (masalan, MS Word) paydo bo`lishi mualliflar uchun kitob yozishni, taxrirlashni va yangi materiallar bilan boyitishni bir muncha osonlashtirdi. Endi kitoblarning nusxasi qog`ozda emas, balki fayl sifatida kompyuter xotirasida saqlanadi. Ammo, matni Word fayli ko`rinishida bo`lgan bu elektron kitobni rosmana kitob shaklida o`quvchilarga yetkazib berish muammoligicha qoldi. Buning sabablari xuddi oddingidek. Yuqorida ta`kidlaganimizdek, muallif uchun faqatgina kitobni yozish jarayoni tezlashdi, halos. Bu muammoni hal etishda ba`zi bir muhim ishlar ham amalga oshirildi. Masalan, kutubhonalarda kompyuterlar bilan jihozlangan honalar tashkil etildi va bu kompyuterlarning xotirasiga darsliklarning elektron variantlari yozib qo‘yildi. Undan o`quvchilar xohlagan paytlarida foydalanish imkoniga ega bo`ldilar.

Uzluksiz ta’lim tizimida elektron axborot ta’lim resurslarini (EATR) yaratish hozirgi vaqtda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Dasturiy ta’minotlar tahlilini bayon etishdan oldin, EAT resurslariga nimalar kirishini ko‘rsatib o‘taylik.

EAT resurslariga fan bo‘yicha yaratilgan elektron darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik ko‘rsatmalar, multimediali vositalar, ma’lumotnomalar va lug‘atlar, gipermatnlar, elektron testlar va topshiriqlar hamda shunga o‘xshash talabaning mustaqil bilim olishini ta’minlovchi, o‘rganishga qiziqish uyg‘otuvchi resurslar kiradi[Fanning o‘quv–metodik majmuasi/ O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2009-yil].

Yuqorida keltirilgan resurslarga qo‘shimcha sifatida pedagogik dasturiy vositalar, video va audio ma’ruzalar, virtual laboratoriya stendlari, intreaktiv plakatlarni kiritish mumkin.

O’quvchiga, tinglovchiga biror axborotni etkazishda uning xususiyatlarini bilish va ishonch hosil qilish kerak. SHunday ekan, axborotni ta’lim vositalaridan biri deyishimiz mumkin. Axborot-ta’lim vositasi(ATV) – bu o’quv jarayonini tashkil kilishning texnologik vositalarini, uni axboriy jihatdan qo’llab-quvvatlashni va har qanday sondagi o’quv muassasalarining Internet vositalarida hujjatlashtirilishini ta’minlovchi dasturiy-telekommuniktsion manbadir. Bundan kelib chiqib, ATV ni asosiy elementlari sifatida texnologik vositalarni, axborot manbalarini va tashkiliy-uslubiy ta’minotlarini keltirish mumkin. ATVning muhim jihatlari: integrativlik, ko’pyo’nalishlilik, ko’chib yuruvchanlik, tarqaluvchanlik, asinxronlik, filtrlanuvchanliklardir.

ATV yuqoridagi holatlarni namoyon qilish uchun uni ma’lum pedagogik tomoyillar asosida kuzatib borish zarur. ATV axborot manbalarini yaratishda quyidagi pedagogik tamoyillar ko’rib chiqiladi: ochiqlik tomoyili – o’quvchiga, tinglovchiga axborot manbalarini tanlash imkoniyati va uni tashuvchilar (kitob, D, videokasseta va hokazolar)da bo’lishi;

- ko’p yo’nalishlilik tomoyili – hodisa va jarayonlar turli nuqtai nazarlarda ko’rsatilganbo’lishi;
- erkinlik tomoyili – mavjud ma’lumotlarni tanlay olish va uni tanqidiy baholash;
- dinamik tomoyili – ma’lumotlar yangilanib turilishi; ma’lumot to’plash va saqlash tomoyili – keyingi guruh uchun elektron kutubxona bo’la oladigan namunali o’quvchilar va tinglovchilar ishlari arxivini yuritish.

Bu tizimida o’qitish modeli tabiatan almashib turadi. U ma’lumot va bilim o’rtasidagi o’tishni boshqarish jarayoni yordamida rivojlanadi, ma’lumotni o’qish uchun ruxsat beradi. U global tus olganda, o’quv muassasasi axborot manbalar tizimi qatoridan o’rin oladi. Barcha olingan bilimlar axborot kontekstning umumiy tushunchalariga kirib ketadi. Ushbu model ichida mustaqil xarakat qilib o’qishni o’rganadi.

O’quv muassasasi ichida yoki uning tashqarisida ma’lumot berishning yangi shakli haqiqiy didaktik axborot yaratishda o’zaro hamkorlik tushunchalarini zaruriy holatga keltiradi. Bu bilimni orttirish modeli deb ataladi. Bilimlarni orttirish modeli ikki jarayonni, ya’ni so’nuvchi va o’suvchi jarayonlarni o’z ichiga olishi mumkin. O’sish jarayonida qismiylikdan umumiylikka o’tish yoki boshqacha aytganda, mahalliydan global ko’rinishga o’tish yuz beradi. Bunda o’quv jarayoni orqali orttirilgan bilim asosini olingan axborot tashkil qiladi. Bunga ma’lumotnomadan foydalana olish, tanqidiy fikrlash va axborot munosabatini boshqara olishni misol qilib keltirish mumkin. So’nuvchi jarayonda umumiylikdan oddiylikka yoki globallikdan mahalliylikka o’tiladi. Bunda mavjud axborot o’qitish jarayoni orqali bilimga aylanadi. Bunday o’tishga bilim orttirish o’quv muassasasi ko’rsatmasiga emas, o’quvchilarga bog’liq bo’lgan barcha holatlar misol bo’la oladi. Bunday o’tishni rivojlantirishning xususiy vositalari sifatida turli ma’lumotlar bazasi, o’quv televideniyasi va internet tarmog’i manbalari keltiriladi. ATV ning tashkiliy-metodik darajasi: ta’lim dasturlarining shaxsiy-mo’ljallangan xarakterliligi, hamkorlik faoliyati usullari, o’rganuvchilarni ta’limning asosiy sub’ekti sifatida faolligi va erkinligi, o’quv jarayoni birgalikdagi harakat harakteri va tarkibning munosabatli va muammoliligi, refleksivligi, o’zgaruvchanligi, ta’lim tarkibi muammo nuqtai-nazaridan yoki uning echimi yuzasida namoyish qilinishi, qo’llab-quvvatlash motivtsiyasi tomoyili, o’rganuvchilar faoliyati va ta’lim tarkibini tashkil qilishning modul-blokli tomoyili, interfaol – nafaqat o’qituvchi va tinglovchi o’rtasida, balki guruh tinglovchilari o’rtasidagi doimiy aloqa tamoyillariga moslashishi. Ta’lim muassasalari o’zining ilmiy–axborot majmualariga ega bo’lishi, xodimlari zamonoviy axborot-kommuniktsion texnologiyalardan foydalanishni mukammal o’zlashtirishlari, axborotlarni izlash, tartiblash, tahlil qilish va umumlashtirishni bilishlari, ular oldiga qo’yilgan hozirgi kun talabidir. Chunki kimlar uchundir rost, kimlar uchundir yolg’on globallashuv va integrtsiyalashuv sharoitida oltin, platina, javohirdan ko’ra ko’proq qiymatga ega bo’lgan axborot jahon bozoridan munosib joy olmoqda. Kim axborotga egalik qilsa, u dunyoni boshqaradi, qabilidagi gap-so’zlarning bot-bot takrorlanayotgani

ham bejizga emas. Axborotning birinchi ahamiyati uni tez etkazishdadir. Buning uchun tezlikni oshirib, masofani qisqartirishga erishilmoqda. Morze telegrafi, telefon, radio, televidenie va Internet esa maqsadga erishish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Dunyo bozorida axborotning eng tez tarqalishida oynai jahon va “o’rgamchak turi”-internet katta rol o’ynamoqda. ATVni amalda qo’llash uchun o’quv muassasalari yuqori darajadagi telekommuniktsion vositalarga, internet texnologiyasiga, rivojlangan axborot tizimiga ega bo’lishi hamda elektron o’quv materiallar, elektron darsliklar yaratish va ularni etkazish imkoniyatiga ega bo’lish talab etiladi.

Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko‘rgazmali material sifatida foydalanish pedagogga katta yordam beradi. O‘quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o‘tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin.

Slaydlarga nisbatan o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini yozadi va bu orqali ular axborotlar bilan ishlashning quyidagi malakalariga ega bo‘ladilar:

- grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki teskarisi;
- muhokama etilayotgan mavzu bo‘yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- o‘zining o‘quv-bilish faoliyatini rejalashtirish.

Bunday metodika o‘qituvchiga yangi axborotlarni ko‘paytirib borish, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi o‘zgarishi bilan ma'lum bir mavzuga mo‘ljallangan slaydlarni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi.

Metodik jihatdan o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro muloqoti ikki turdagi ta'sirdan iborat. Birinchisi — o‘qitishning ma'lum bosqichida o‘quvchiga shu bosqichdagi masalani tushunishga yordam beruvchi yo‘naltiruvchi savollar. Ikkinchisi — masalani aniqlashtiruvchi fikrlar va harakatlar usulini ko‘rsatish.

Savollar va ko‘rsatmalar soni nazariy va amaliy materiallarning o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi hamda malakaning shakllanishiga bog‘liq ravishda beriladi.

Amaliy tahlillar ta'lim jarayonida katta samaraga ega bo‘lishi uchun o‘quv jarayonida interfaol didaktik o‘yinlar va mashq qildirgichlardan foydalanishni taqozo etadi. Ular o‘quvchilarning jamoa bo‘lib yoki individual faoliyatini, kasbiy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Interfaol o‘yinlar ma'lum bir kasbiy sifatlarga va malakaga ega bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirish maqsadida kelajakda kasbiy faoliyati bilan bog‘liq vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatini beradi. Aynan didaktik o‘yinlar va mashq qildirgichlarni yaratish elektron o‘quv-metodik majmualar yaratishda katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu qiyinchilik dasturiy-texnik va metodik qiyinchiliklar bilan bog‘liq.

Ushbu sohaning yangiligi va o‘quv-uslubiy ta'minotning yo‘qligi ishlab chiqilayotgan elektron darsliklarning sifat darajasiga jiddiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, darsliklarni yaratishning yagona standartlari majud emasligi va dasturiy vositalarining turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilishi elektron darsliklarni o‘quv jarayonida samarali qo‘llashga to‘sqinlik qilyapti deyish mumkin.

Shuning uchun ham yaratilayotgan elektron darsliklarni baholash mezonlarini belgilab olish lozim. Avvalambor, elektron darsliklar o‘tilayotgan darslar sifatini yuksaltirishiga qanday ta'sir ko‘rsatishini bilish kerak. Elektron darsliklarning an'anaviy usullarga nisbatan quyidagi afzalliklarini keltirish mumkin:

1. O‘quv axborotlarining taqdim etilish shakli.
2. Kerakli axborotlarni qidirish imkoniyati.
3. Olingan bilimlar darajasini nazorat qilish usullarining mavjudligi.
4. O‘qituvchi bilan teskari aloqaning mavjudligi.

Shulardan kelib chiqib, elektron darsliklarni yaratishning quyidagi tamoyillarini keltirish mumkin:

• multimedia ma'lumotlari (matn, grafik, audio, video, animatsiya) asosida axborotlarni taqdim etish;
• qidirish va yo‘llash imkoniyatlarini kiritish;

• olingan bilimlar darajasini nazorat qilishning ob'yektiv tizimini kiritish;
• tarmoq texnologiyalari asosida o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro interaktiv va teskari aloqasining yo‘lga qo‘yilishi.

Axborot mahsulotlarining respublikamiz hayotida tutgan o‘rni va roli ijobiy tomonga o‘zgarib bormoqda. Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozori industriyasini tarkib toptirish jamiyatimizda chuqur ijtimoiy o‘zgarishlarga olib kelib, uni «industrialdan axborotlashgan jamiyatga» aylantirishiga ishonchimiz komil.

EAT resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta’minotlardan biri Ispring dasturi hisoblanadi [http://www.ispringsolutions.com]. Odatda, taqdimotni o‘tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta’minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo‘lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda internet texnologiyalarining rivojlanishi va o‘z navbatida, masofali ta’lim turining paydo bo‘lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o‘zida onlayn ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo‘lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring QuizMarker, iSpring PRO va iSpring Kinetics kabi variantlarga ega [http://www.ispringsolutions.com]. Mustaqil ekspertlarning fikriga ko‘ra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertatsiyalash sifati va optsiyalar soniga ko‘ra eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. iSpring nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta’lim jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan roliklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so‘rovlar, elektron testlarni ham kiritgan holda o‘zaro interaktiv bog‘lanish imkoniyatini ham beradi.

## 3-§. Mustaqil ta'limni tashkil etishda o'rgatuvchi dasturlarning o'rni

Talabalarning mustaqil ishlari O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining "Talaba mustaqil ishini tashkil etish to`g`risida" gi 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonli buyrug`i va "Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to`g`risidagi Na`munaviy nizom" asosida tashkil etiladi.

TMIni tashkil etishda talabaning akademik o`zlashtirish darajasi va qobiliyatini qisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish, o`quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va labaratoriya mashqulotlariga tayyorgarlik ko`rib kelish;
- ma`lum mavzu bo`yicha referat tayyorlash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash;
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

Talabaning mustaqil ish topshirishdagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o`zlashtirish ko`nikmalariga ega bo`lish;
- kerakli ma`lumotlarni izlab topish qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an`anaviy o`quv va ilmiy adabiyotlar, me`yoriy xujjatlar bilan ishlash;
- elektron o`quv adabiyotlari va ma`lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog`idan maqsadli foydalanish;
- berilgan topshiriqning rastional yechimini belgilash;
- ma`lumotlar bazasini belgilash;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;

- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g`oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish;
- darslik va o`quv qo`llanmalarning (ularning to`la ta`minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o`rganish.

Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- tayyorgarlik ko‘rish (maqsadni aniqlash, dastur tuzish, metodik ta’minotni tayyorlash, qurilmalar va boshqalar);
- asosiy (dasturni amalga oshirish, ma’lumotlarni qidirish usullaridan foydalanish, o‘zlashtirish, qayta ishlash, qo‘llash, bilimlarni uzatish, natijalarni fiksirlash, ishlash jarayonini mustaqil tashkil etish);
- yakunlovchi (baholash va natijalarni tahlil qilish, ularni tizimlashtirish, dastur va ishlash usullari effektivligini baholash, mehnatni optimallashtiri haqida xulosalar).

O‘qituvchi funksiyalari quyidagilar:

- fan bo‘yicha auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv rejaga asosan shakl, mazmun, hajm bo‘yicha talabalar mustaqil ta’limi rejasini ishlab chiqish;
- mustaqil ta’lim bo‘yicha, fan bo‘yicha o‘z-o‘zini baholashni o‘tkazish va bilim darajasini nazorat qilish materiallari bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqish;
- talabalarga maslahatlar berish jadvalini tuzish;
- birinchi darsda talabalarga mustaqil ish ko‘rinishi va topshirish vaqtlarini etkazish;
- talabalar mustaqil ishlarini bajarishlarini doimiy nazorat qilish.

Turli o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- talabalar mustaqil ta’lim soatlarini ko‘paytirish maqsadida o‘quv rejalarni qayta ishlab chiqish. Bunda mavzular va bo‘limlar bo‘yicha adabiyotlar

bilan ta'minlanganligi va barcha ta'lim oluvchilar foydalani olishlari inobatga olinishi zarur;

- ta'lim usullarini optimallashtirish, zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini, elektron ta'lim resurslarni ta'lim jarayoniga kiritish;
- talabalar mustaqil ta'limini joriy nazorat tizimini takomillashtirish (reyting-bal tizimini qo'llash, kompyuterlashtirilgan test sinovlari va boshqalar);
  - talabalarning amaliyot va o'quv-tajriba ishlarini o'tkazish usullarini takomillashtirish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda masofali ta'lim, o'rgatuvchi dasturlar, elektron kitoblardan keng foydalanib kelinmoqda. Yaqin vaqtlargacha masofaviy ta'lim, sirtqi ta'lim, ochiq ta'lim va hokazolar kabi tushunchalar deyarli bir-biridan ajratilmas edi. Biroq hozirgi vaqtga kelib, masofaviy ta'lim MT o'z ahamiyati va zarurligini isbotladi. Biroq hozirgacha, MT – bu ta'lim shaklimi yoki texnologiyami degan savollar dolzarbligicha qolmoqda. Chunki, bu savolning tushunchasidan masofaviy ta'li mning strategiyasi, amalga oshirish taktikasi hamda o'qituvchilarni masofaviy ta'limda ishlashga tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi vaqtda masofaviy ta'limning tadqiqotchi va amaliyotchilari tomonidan unga quyidagicha asosiy ta'rif berib kelinmoqda:

– Masofaviy ta'lim – bu o'quv materialining yetkazib berilishida, mustaqil o'rganishida, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muloqot almashinuvida qo'llaniladigan, an'anaviy va yangi axborot texnologiyalarni hamda ularning texnik vositalarni keng qamrovda ishlatilishidagi ta'limning sintetik, integral, ijtimoiy shaklidir.

– Masofaviy ta'lim – Interfaollikni nazarda tutgan Internet texnologiyalarining maxsus vositalari yoki boshqa vositalar bilan amalga oshiriladigan, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ta'sir masofada amalga oshiriladigan va o'quv jarayoniga mos bo'lgan kompyuterlarni (maqsad, mazmun, usullar, tashkiliy shakllar) aks ettirgan ta'lim shaklidir. Yuqorida keltirilgan ta'riflardan masofaviy ta'lim mohiyatini tushunishga yagona tizim yo'q deb xulosa qilish mumkin. Biroq hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'li mni

masofaviy ta’limning texnologiyasi ko‘rinishida keltirilgan, bu esa qonunchilik bazasi bilan mustahkamlanmagan.Shunday qilib, masofaviy ta’lim texnologiyasi deganda:

CD – texnologiyasi tushuniladi (vaqtinchalik talabalarda keys-texnologiya) – o‘quv materiallari, o‘quvchilarga chop etiladigan va multimediali olib yuriladigan vositalarda keltirilgan (disklar CD-ROM, DvD-ROM). U qoidaga asosan kunduzgi shakldagi mashg‘ulotlarga mos ravishda qo‘llaniladi: ko‘rgazmali ma’ruzalar, seminarlar, trenglar, konsultatsiyalar va nazorat ishlari. O‘qituvchi bilan bo‘ladigan muloqotlarning bir qismi (misol uchun, konsultatsiya), shuningdek, elektron kutubxonalardan axborotlar va ma’lumotlar olinishi, Internet orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tarmoq texnologiyasi – oliy o‘quv yurtlarining Internet serverida joylashadigan kompyuterda o‘rgatiladigan dasturlar va elektron darsliklarni ishlatilishidir. Internet orqali o‘qituvchi bilan bog‘lanilib, oraliq va yakuniy test nazoratlaridan o‘tishi mumkin. Qator oliy o‘quv yurtlari ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarini xuddi shuningdek, aniq vaqt rejimida o‘tkazadilar.Imtihonlarni o‘quvchilarning yashash joylariga yaqin bo‘lgan oliy o‘quv yurtla-rining o‘quv markazida o‘tkazadilar. Tarmoqli o‘qitish mustaqil tarzda, shuningdek, axborot ta’lim muhitining ochilishi asosida tashkil etilishi mumkin.

Televizion-yo‘ldoshli texnologiya tashkiliy jihatdan tarmoq texnologiyasi bilan o‘xshashdir, faqat o‘qituvchi va o‘quvchilar muloqoti aloqaning yo‘ldoshli kanallari bo‘yicha amalga oshiriladi.Yuqorida qayd etilgan uchala texnologiya bo‘yicha hozirgi vaqtda, ta’limning kunduzgi va masofaviy davrlarini moslashtirgan holda ko‘pincha gibridli modelidan foydalaniladi. Biroq chet elda masofaviy ta’lim shakli sifatida ko‘riladi, shuning uchun quyidagi savol dolzarb hisoblanadi: Masofaviy ta’lim – bu shaklmi, texnologiyami yoki vositami? Masofaviy ta’limni ta’lim shakli sifatida ko‘rib chiqamiz.

Masofaviy ta’lim ta’limning yangi shakli sifatida mutlaqo mustaqil ta’lim bo‘la olmaydi. Masofaviy ta’lim kunduzgi ta’lim mazmunidagi kabi mos ravishda o‘sha maqsadlar bilan quriladi (agar u ta’limga mos keluvchi dastur bo‘yicha

qurilsa), lekin, materialni yetkazish shakli, o‘qituvchi va o‘quvchilar shuningdek, o‘quvchilarning o‘zaro o‘rtasidagi ta’sir etish shakli boshqacha bo‘ladi. Masofaviy ta’limning asosiy bazaviy didaktik prinsiplari boshqa yuksak ta’lim turlari kabidir, lekin masofaviy ta’limning tashkiliy prinsiplari boshqachadir, ular masofaviy ta’lim uchun xosdir, chunki shakl xususiyatlari, internetning axborot vositasi imkoniyatlari, uning xizmatlari (chatlar, forumlar, elektron pochta, videokonferensiya) bilan ifodalangan.

Masofaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida modullilik, o‘qituvchi rolini o‘zlashtirish, o‘quv jarayoni subyektlarining masofa bilan ajratilganligi, ta’limning virtual kooperativligi, o‘qituvchi tomonidan yuritiladigan nazorat ustidan o‘z nazoratini o‘rnatish, zamonaviy maxsus ta’lim texnologiyalari va vositalarining ishlatilishini keltirishimiz mumkin.

Masofaviy ta’lim ishlatilishining asosiy sohalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– ma’lum sohalar bo‘yicha pedagogik kadrlar malakasini oshirish;

– imtihonlarni ekspert usulida topshirishda alohida o‘quv fanlari bo‘yicha maktab o‘quvchilarini tayyorlash;

– ma’lum yo‘nalishdagi o‘quv muassasalariga o‘qishga kirish uchun maktab o‘quv-chilarini tayyorlash;

– maktab o‘quvchilarning yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim olishlarini tashkil etish;

– qiziqish bo‘yicha qo‘shimcha ta’lim olish;

– kadrlarni kasbga qayta tayyorlash;

– kasbiy tayyorgarlik.

Masofaviy ta’lim bilan kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarini taqqoslab, shuni xulosa qilish mumkinki, masofaviy ta’limni, personal kompyuterlar, video va audio texnika, kosmik va optik tolali texnikaning ishlatilishida asoslangan ta’limni axborot texnologiyalari bilan ta’min etilganligi sirtqi va kunduzgi ta’lim rivojlanishining yangi bosqichi sifatida ko‘rish mumkin. Masofaviy ta’lim

ta’limning sirtqi shaklidan shunisi bilan farq qiladiki, unda materialning mohiyatli qismi mustaqil o‘zlashtirilmasdan, o‘qituvchi bilan doimiy muloqotda amalgaoshiriladi (telefon va internet, ma’ruza va seminarlarda onlayn rejimidagi konsultatsiyalar).Shuningdek, masofaviy ta’limning sirtqi ta’lim shaklidan asosiy farqlari sifatida quyidagilarni kiritish mumkin: – telekommunikatsiya vositalari yordamida o‘qituvchi bilan doimiy (tyutor bilan) muloqot, vujudga keladigan savollarni u bilan operativ tarzda muloqot qilish imkoniyati.

Talaba mustaqil ishining maqsadi – o`qituvchining raxbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o`quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va xajmi, qiyinchilik darajasi semestrdan-semestrga ko`nikmalar qosil bo`lishiga muvofiq ravishda o`zgarib, oshib borishi lozim. Ya`ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o`rgatib borish kerak bo`ladi.

Mustaqil ishning maqsadi olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, belgilangan mavzular asosida qo’shimcha bilim olishdan iborat. Shu sababli u o’qituvchining talabalarga oldindan berib qo’yiladigan mavzulari asosida tashkil qilinadi. Bunda talabalar ushbu ishlarni bajaradilar:

-amaliy mashg’ulotlarga tayyorgarlik;

-nazariy tayyorgarlik ko’rish;

-uy vazifalarini bajarish;

-o’tilgan materiallar mavzularini takrorlash;

-mustaqil ish uchun mo’ljallangan nazariy bilim mavzularini o’zlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish natijasida yaratilgan dastur talabalarni mustaqil ta’lim olish jarayonida foydalinshlari uchun juda qulay dasturiy vositadir. Uchbu dasturiy vosita ta’lim samaradorligini ortirishga xizmat qiladi.

Bunda talabalar informatika fanidan olgan bilimlarini amaliy mashg’ulotlarda bajarishlari bilan mustahkamlashlari, asosiy mavzularni tushunishlari, hamda ularni sohalariga oid masalalarni yechishda qo’llay olishlari talab qilinadi.

Mustaqil ish mavzularining o’zlashtirilishi ta`lim jarayonida o’qituvchi tomonidan uzluksiz nazorat qilib boriladi va topshiriq natijalari yozma hisobot sifatida qabul qilinadi.

## 4-§. Ispring dasturi imkoniyatlari

iSpring Suite – bu PowerPoint dasturida elektron o‘quv kurslarini yaratuvchi professional vosita hisoblanadi. iSpring dasturi yordamida foydalanuvchi bir nechta bosqichdagi o‘quv kurslarini yaratishi va nashr qildirishi mumkin:

a) Power Point- taqdimotlar bazasida o‘quv kurslarini yaratish;

b) Audio va video fayllarni birlashritish;

c) Interaktiv testlar yaratish;

d) Interaktiv bloklar yaratish;

e) Masofaviy ta’lim tizimi uchun ma’lumotlar tayyorlash.

iSpring Suite dasturi o‘zida iSpring Pro, iSpring QuizMaker va iSpring Kinetics dasturlarini jamlagan. iSpring dasturini uskunalari PowerPiont dasturining menyular satriga sozlanadi.

*iSpring*ning o’rnatilishi muvofaqqiyatli bajarilgandan so’ng ,*Power Point* ga *iSring* insturimental qatori qo’shiladi. *iSpring*ning funksiyalaridan tayyorlangan fayli Flash formatga o’ziga xos playback (boshqarilish)ni yuzaga keltiradi. Audio va videolar bilan Flahda tayyorlangan fayl yaxshiroq bo’ladi. Eslatma, aytish kerakki iSpring Proga qo’shiladigan xar bir ma’lumot Windows uchun o’ziga xoss ahamiyatga ega.

iSpring Pro yordamida:

- Windowda Flashni muomilaga chiqarish;
- Prezentatsiyani tadqiq etish;
- Window bilan bog’lanish;
- Windowni taqdim etish;;
- Windowda audio yozish;
- Windowda vidio yozish;

➢ Windowda sinxron qilish;

➢ Windowga so’rovlar qo’yish;

➢ Windowni Flashga kiritish mumkin.

<*Quick Publish*> tugmasini bir marta bosish orqali yuqori darajadagi *Flash movie* o’rnatiladi. *iSpring Quick Publish*ning o’ziga xos xususiyatlaridan biri taqdim etiladigan prezentatsiyada ortiqcha o’zgarishlarga yo’l qo’ymaydi.

iSpring Pro 180 dan ortiq effektlarga ega. Bu ko’rsatkich Power Point 2007 dagi barcha effektlar kombinatsiyasidan iboratligi, ko’plab harakatlarni o’z ichiga olganligi hamda shu ko’rsatkich bo’yicha harakatlarni mukammallashtirganligi bilan tasvirlanadi.

iSpring quyidagi imkoniyatlari mavjud:

• taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;

• taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;

• taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko‘ra olish, taqdimotga «himoya belgi»si qo‘yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»;

• video qo‘shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;

• elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o‘qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o‘rnatilgan (Quiz tugmachasi);

• masofaviy o‘qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos keluvchi kurslarini yaratish;

• taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;

• videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;

• YouTube’ga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.

(Ilovalar 1-rasm ga qarang).

EAT resurslari ichida kiruvchi ma’lumotnomalar va lug‘atlarni yaratish uchun iSpring Kinetics dasturini keltirish mumkin. iSpring Kineticsning quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:
• biror-bir fan bo‘yicha elektron ko‘rinishdagi qulay bo‘lgan glossariy, ma’lumotnoma yoki lug‘at yaratish;

• vaqt shkalasini yaratish;

• 3 o‘lchovli kitob yaratish;

• FAQ yaratish mumkin.




*2-rasm . iSpring Kinetics dastur imkoniyatlari*

EAT resurslari ichida kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMaker dasturini keltirish mumkin. iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:
• tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati (adaptatsiyalashtirilgan testlarni yaratish) imkoniyati;

• ikki, uch, to‘rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to‘g‘ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshriqlari;

• bir necha to‘g‘ri javobli yopiq test topshiriqlari;

• ochiq test topshiriqlari;

• o‘xshashlikni aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar;

• to‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlashga mo‘ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyati.(Ilovalar 3 – rasmga qarang)

**Slaydlar o’zgarishi**

iSpring Pro barcha slaydlar Power Point 2003 , Power Point 2007,Power Point 2010 da slaydlar o’zgarishi harakatlarini qo’llab-quvvatlaydi. Power

Pointdagi barcha harakatlarni nomlari bilan keltirilgan. (Ilovalar 4 – rasmga qarang)

## Power Point dasturining umumiy interfeysi.




*5-rasm. iSpring Pro dasturining ish qurollari*

## Power Point dastur muhitida iSpring dasturi paketi




*Экспресс публикация* –tez publikatsiyalash (jamlash). Bunda jimlik yoki joriy holatdagi sozlash asosida slaydlar yagona faylga jamlanadi




*Опубликовать*- publikatsiyalash(jamlash).Bunda foydalanuvchiga alohida oynada taqdimotning xususiyatlarini sozlash taklif etiladi.

## *Window Flash*ni amaliyotda qo'llash

Window Flash tayyor prizintatsiyaning barcha turdagi qismlarini Flash formatga o'tkazish uchun ishlatiladi. Foydalanuvchilar yangi saqlangan taqdimotdan foydalanadilar.

Amaliyotdagi Window prezentatsiyalarining tezkor natijalaridan foydalanish, asosan 4 ta qismda ifodalanadi.

1. **Web-** taqdimotga taqdim qilinadigan tanlangan taqdimotni local kompyuterda yoki tarmoq bo'ylab taqdim etishi mumkin. ( Ilovalar 6-rasmga qarang)

1) **Главная** – *Flash* taqdimotning chiqarish usullari.

Bu bo'lim quyidagi bandlardan iborat.

***Название презентации-*** bu bandga yaratgan mahsulotimizni ishga tushirganimizda sarlavha satri nomini kiritishimiz mumkin yaratgan dasturimiz ishga tushganda huddi shu nom bilan ishga tushadi




***Назначение-*** bu bandda biz taqdimotni 3xil holatda saqlashimiz uchun kerakli bandlar ko'rsatilgan




**Мой компютер ,FTP,E-mail получателя** bo'limlaridir ular bilan quyroqda tanishib chiqamiz.

***Публиковать*** –bu bandda biz yaratgan taqdimotimizni barchasini yoki o'zimiz tanlagan slaydlarni taqdim etishimiz mumkin.




***Режим конвертирования*** –bu bandda taqdimotni formatini ko'rsatishimiz mumkin.




bir vaqtda flash formatda hamda HTML yoki EXE formatlarda saqlashimiz va to'liq ekran rejimini aktivlashtirishimiz mumkin yoki Alohida Flash fayl holatda saqlashimiz va ZIP arxivini hosil qilishimiz mumkin.

***Шаблон плеера*** – bu bandda biz taqdimotimiz dizayniga etibor berishimiz mumkin.



Ular bilan tanishib chiqamiz.

a) **Мой компютер** – Mening kompyuterim taqdimotini local kompyuterda yoki tarmoq bo'ylab ulangan kompyuter xotirasida saqlash mumkin (yuqoridagi rasmga qarang).

b) **FTP** bo'limi orqali FTP adresga jo'natish mumkin.




**Учетние записи FTP** knopkasini bosish orqali quyidagi muloqot oyna xosil bo'ladi.




*Новый* bandi tanlanadi va



Имя хоста bo’limiga kerakli IP adres kiritiladi Port tanlanadi va OK tugmasi bosiladi(Misol uchun 127.0.0.1:8888 ) va quyidagi muloqot oyna xosil bo’ladi.




*Имя файла* bandiga yaratilgan prezentatsiyamizga nom yoziladi va *Режим конвертирования* bo’limidan yaratgan prezentatsiyamizning o’zimizga kerakli bandlarini tanlaymiz




Flash formatli ,HTML formatli ,EXE formatli taqdimotlar yaratish shuningdek taqdimotni arxiv xolatini yaratish mumkin.

Shundan so’ng Переобразоватъ tugmasi tanlanad3i.

2) **Проигрывание и навигация** –taqdimotga profil saqlash,taqdimotni avtomatik ishga tushirish,qadamlarni belgilash ,uni boshqarish , yaratilishi va navigatsiyasi.



3) **Сжатие** - tanlangan rasmlar ,vidio hamda audiolarni chiqarish




Rasm, audio, vidiolarni razmerini belgilash mumkin.

4) **Расширенные** –bunda taqdimotning ekran zarmerini belgilash zagruzka holatini ko'rinishini belgilashimiz mumkin.




5) **Himoya** – *Flash* taqdimotingizning mualliflik xuquqini himoya qilish.



2. **CD-** bo'limi bu bo'limning web bo'limidan farqi shundan iboratki

**Главная** bo'limi hisoblanadi. Chunki bu bo'limda faqat **Мой компютер** bo'limi faol xolatda bo'ladi qolgan bo'limlardan foydalanish imkoniyati mavjud emas. ( Ilovalar 7- rasmga qarang ).

3. Taqdimotdagi **iSpring Online** imkoniyati –taqdimotingizdan online(to'g'ridan-to'g'ri ) tarzda foydalanishga ruxsat etadi.
4. Taqdimotdagi **LMS** imkoniyati taqdimotni FTP server orqali murojatga ruxsat etadi.

*Publish Window*da taqdimotning quyidagi xususiyatlarini boshqarish mumkin:

Agar iSpring Pro haqida savollar tug'ilsa , unda windowning yordam tugmachasini bosish orqali ma'lumotnomaga murojat qilish mumkin.

**My computer taqdimoti**

Mening kompyuterim taqdimotini local kompyuterda yoki tarmoq bo'ylab ulangan komyuter xotirasida saqlash mumkin.

( Ilovalar 8 – rasmga qarang ).

XXI asr fan texnika, ta'lim, meditsina, ishlab chiqarish va boshqalarda katta o'zgarishlar olib kirdi. hayotimizni barcha soxalariga axborot texnologiyalarini joriy qilinishi, fan texnika soxasidagi yangiliklarni sekund sayin yaratilishi, dunyoda axborotlarni chegara bilmay qolganligi insoniyat ongini yana bir daraja ko'tarilib rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

E'tibor bersak, axborot asri deb atalmish ushbu asrda tug'ilayotgan farzandlarimiz aql-idrok jihatdan ustunroq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunday yoshlarga shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda ta'lim-tarbiya berish, ularni mustaqil fikrlaydigan, o'z fikrini mustaqil ayta oladigan qilib tarbiyalash, ularni shaxsini rivojlantirish uchun ta'lim soxasida ham o'zgarishlarni talab qilmoqda. An'anaviy o'qitishdan zamonaviy o'qitish, ya'ni yangi pedagogik

texnologiyalar, o’qitishning yangi axborot texnologiyalari asosida o’qitishga o’tish zamon talabidir. O’quv jarayonini pedagogiktexnologiyalar asosida tashkil etish natijasida ta'lim maqsadlari belgilanadi yoki loyhalanadi, kutilayotgan natija-ijobiy sifat o’zgarishi kafolatlanadi, o’quv jarayoning takrorlanuvchi sikli yaratiladi.

O’quv maqsadlarini texnologik usulda loyihalashda bosh, yetakchi holat to’la-to’kis aniqlangan, identifikasiyalashgan o’quv maqsadlarini ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadlarining qanchalik darajada amalga oshgani va erishilgani haqida fikr yuritish uchun ularni qat'iy va aniq o’lchash mumkin bo’lgan natija-topshiriqlarga aylantirish zarur. o’quv jarayonini texnologiya asosida tashkil etishda nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, o’qitish maqsadlarini aniqlash bilan uzviy bog’liq holda amaga oshiriladi. Bu o’z navbatida ta'lim texnologiyasini joriy etishning tamoyili, qoidalari, mexanizmlariga mos tushadi, erishish mumkin bo’lgan pirovard natija oldindan belgilab qo’yiladi. Shuning uchun o’quv masadlari aniqlashtirilgach, unga mos ravishda nazorat topshiriqlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Didaktlarni fikri va amaliyotning ko’rsatishicha, o’quv maqsadlarining, erishiladigan natijasi aniq va osonroq ifodalaydigan shakllardan biri- test topshiriqlaridir. Testlarni turkmlashda ularni qo’llash maqsadi va vazifalariga asoslanib, psixologik testlardan boshqa barcha testlarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

-intellektual rivojlanish darajasini aniqlashtiruvchi testlar;

-pedagogik testlar;

-muayyan kasbga yaroqliligini aniqlovchi testlar.

Pedagogik testlarni kompyuter yordamida avtomatlashtirilgan holda o’tkazish uning asosiy afzalliklaridandir. Kompyuter yordamida onlayn taqdimotlar va elektron o’quv kurslarini yaratuvchi zamonaviy dasturlardan biri iSpring Suite dasturlar to’plamidir.

iSpring Suite dasturlar paketiga iSpring Pro, iSpring QuizMaker, iSpring Kinetics

jamlangan. Bu dasturlardan iSpring QuizMaker dasturi audio, video fayllar, tasvir va formulalar yordamida interaktiv testlar va anketalar yaratadi. Interaktiv testlarni iSpring QuizMaker dasturi yordamida tuzish uchun kompyuterga iSpring Suite dasturi bilan Adobe Flash (operasion tizim razryadiga ko'ra 32 va 64 bitli) dasturi o'rnatilishi talab etiladi.dastur o'rnatib bo'lingach **Пуск** menyusidan **Все программы** bo'limida iSpring Suite tanlanadi va natijada 9-rasmdagi oyna paydo bo'ladi. ( Ilovalar 9-rasmga qarang ). Bundan iSpring QuizMaker dasturi tanlanishi bilan 10-rasmdagi oyna ochiladi. (Ilovalar 10-rasmga qarang ).

Bu oynadan **Создать новый тест** bo'limini tanlasak pedagogik testlarni tuzish uchun oyna ochiladi(11-rasm). (Ilovalar 11- rasmga qarang). Bu oyna dasturning ishchi oynasi hisoblanadi. Ishchi oynaning **Добавить тест** bo'limidan test yaratish amali boshlanadi. Ushbu bo'limda pedagogik testlar turlarining 11ta turi keltirilgan ularni kerakligini tanlab test tuzishimiz mumkin. Ular quyidagilar:

1. **Верно/неверно** (to'g'ri/noto'g'ri) test turi -bunda savol berilib to'g'ri yoki noto'g'ri javobini tanlanadi;
2. **Одиночный выбор** ( bitta javobni tanlash) - bir necha variatdan kerakli javobni tanlash;
3. **Множественный выбор** (bir necha javobni tanlash);
4. **Ввод строки** ( satr kiritish) - javobni satrga kiritish yo'li bilan javob berish;
5. **Соответствие** (mos keltirish) - savollarni javoblariga mos keltirib qo'yish orqali javob berish;
6. **Порядок** (tartib) - javobni kerakli tartibga keltirib javob berish;
7. **Ввод числа** (sonni kiritish) - satrga savol javbiga mos sonni kiritib javob berish;
8. **Пропуски** (tushirib qoldirilgan) -tushirib qoldirilgan so'zlarni kerakli joyga qo'yib yozish;
9. **Вложенные ответы** (jamlagan javoblar)-jamlangan javoblar ichidan to'g'ri javobni tanlash orqali javob berish;

10. **Банк слов** ( so'zlar ombori) -so'zlar omboridan kerakli so'zlarni to'g'ri ketma ketlikda qo'yish orqali javob berish. Bunda so'zlar omboriga so'zlarni ham kiritish kerak bo'ladi;

11. **Активная область** (faol soxa) -rasmda aktiv soxani tanlab javob beriladi. Bunda rasmning biror soxasini tanlash kerak bo'lgan savol kiritiladi. Test tuzishda ana shu testlar turini tanlab unga mos savollar berib, javobini ham kiritish kerak bo'ladi. (<u>Ilovalar 12- rasmga qarang</u> ).

Birinchi qadam biz ko'rib turganimizdek dasturda hamma so'zlar ruschada berilgan. Ularni o'zbekchaga o'tkazib olishimiz ham mumkin. Dasturni ishchi oynasida **Тест** bo'limidan **Настройки** bandini tanlaymiz. Shunda oyna ochiladi (4-rasm). Oynaning chap bo'lmidan **Надписи** bandini tanlaymiz. **Сообщение / кнопка** ustuniga tegmagan holda **Надпись** ustuniga birinchi ustunga berilgan so'zlarni mosiga o'zbekcha so'zlarni kiritib taxrirlashimiz mumkin. Natijada testimiz o'zbekcha ko'rinishga keladi. Ikkinchi qadamda kerakli test turini **Добавить вопрос** bo'limidan tanlaymiz. Misol uchun **верно/неверно** turi. Shunda dastur oynasi quydagicha ko'rinishga keladi(13-rasm). ( <u>Ilovalar 13-rasmga qarang</u>).

Ushbu oynaning **вопрос** oynachasiga savol kiritib, unga ko'ra **ответ** oynasiga ikkita javob kiritib, savolga mos to'g'ri javobni tanlab qo'yiladi. Dastur oynasining o'ng qismida **Изображение, Звук, Видео** yozuvi turibdi shular yordamida fayllardan tasvir, formula, ovoz, videolar tanlab savollar ham tuzish imkoniyati mavjud. Shu tarzda har xil test turlaridan tanlab testlarni yaratish mumkin. Uchinchi qadam. Test tuzib bo'lingandan so'ng uni sozlash kerak bo'ladi. Umumiy ball berish, har bir savolga necha ball berish, testni davomiyligi va h.k.

Buning uchun yana **Настройки** bo'limiga kiramiz(12-rasm). Bu oynaning chap oynasidagi bo'limlarga kirib testerimizni sozlab olamiz.

